

AHOLI TURMUSH DARAJASI BAHOLASHNING AHAMIYATI.

Tursunov Farxod Baxodir o'g'li

Termiz Davlat Universiteti 1 – bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada dunyoda va mamlakatimizda aholi turmush darajasinin baholashda qilinayotgan ishlar hamda turmush darajasini yaxshilash uchun qaratilgan chora tadbirlar haqida bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *Turmush darajasi, aholi bandligi, obyektiv va subyektiv baholash, statistika*

Abstract: *This article describes the work being done in the world and in our country to assess the living standards of the population and measures to improve living standards.*

Keywords: *Living standards, employment, objective and subjective assessment, statistics.*

Аннотация: *В данной статье описывается работа, которая ведется по оценке уровня жизни в мире и в нашей стране, а также меры по повышению уровня жизни.*

Ключевые слова: *Уровень жизни, население работа, объективная и субъективная оценка, статистика.*

Bugungi globallashuv davrida axborot almashinuvining tezlashuvi, axboriy xurujlar va axborotlarning jamiyat hayotidagi o'zni tobora ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida jamiyatdagi ko'plab sohalarda o'zining ta'sirinin o'tkazmay qolmayapti. Iqtisodiy tengsizlik insoniyat uchun ba'zi jihatlarida o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Yildan yilga ishlab chiqarish, infratuzilmaning rivojlanishi evaziga ko'rinish jihatdan hammasi yaxshidek. Ammo boshqa tomonlarini hisob kitob qilib shuni aytish mumkinki dunyoda iqtisodiy inqiroz, o'g'ir yashash sharoiti va qashshoqlik darajasi yuqori bo'lgan mintaqalarning ko'payib borishi bugungi iqtisodiy o'sishlarning aynan shunday mintaqalardan chetda qolayotganini anglatadi. Bugungi kunda iqtisodiyot sohasida ko'plab mutaxassislarning kirib kelishi ushbu sohada muammolarni bartaraf etishda yangi yechimlarni keltirib chiqarishi zarur. Bu xususida Rossiyalik iqtisodchi, Sankt - Peterburg davlat iqtisod va moliya Universiteti professori L.S.Tarasevich shunday deb aytgan: “- borgan sari iqtisod sahasida bilimni qatlam vakillarini ko'rishimiz mumkin. Chunki iqtisod sahasi qolgan barcha sohalardan ustun turadi. Bu yillar davomida shakllangan va davom etib kelayotgan jarayondir. Bu holat o'z navbatida iqtisodiy muammolar va ularning yechimlarini shakllanishiga olib keladi.”¹

Aholi turmush darajasini o'rganish, uni baholashda bugungi kun talablaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ilm-fan va amaliyotda hayot sifati va darajasini baholashda katta tajriba to'plangan, ammo hatto eng ishonchli ko'rsatkichlar tizimlari ham vaqt o'tishi bilan eskiradi. Aholining turmush darajasi va sifatini ob'ektiv, ishonchli va ishonchli aks ettiruvchi umumlashiruvchi ko'rsatkichlar va ko'rsatkichlarni olish doimo dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Shu sababli, aholining hayot darajasi va sifatini baholashning turli usullari qanday potentsialga ega ekanligini aniqlash va aholining hayot darajasi va sifatini baholash usullarining mazmuniga qo'yiladigan asosiy uslubiy talablarni ishlab chiqish juda muhimdir.

¹ Экономическая теория: Учебник / Под общ. ред. акад. В. И. Видяпина, А. И. Добрынина, Г. П. Журавлевой, Л. С. Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2003. – 714 с – (Серия «Высшее образование»).

Hozirgi vaqtda aholining hayot darajasi va sifatini baholashning ko'plab usullari mavjud. Mutaxassislar tomonidan taklif etilgan ko'plab yondashuvlar mavjud bo'lib ular asosan mavjud shart sharoitlarga mos holda qo'llaniladi. Masalan turmush darajasini baholashni tartibi uchun 2 ta yondashuvni ko'rsatishimiz mumkin.

1. Subyektiv
2. Obyektiv

Birinchi holda shaxslar o'zlarini hayotga nisbatan qoniqish hissi orqali subyektiv baholaydilar. Bunda insonlar hayot sifatini baholash nazariyasiga ko'ra yaxshi hayot darajasini yaratishga asoslangan hayot sifat ideksini qurish, yanada istiqbolli va yanada qulay sharoitni taqdim etish asosiy real haqiqatlarga mos kelishidir. Bu shaxs sifatida uning ehtiyojlarini qondirish darajasi va uning umumiy hayotiy sifat ko'rsatkichlarini aniqlashga imkon beradi. Ikkinchi holatda esa odamlar yashash sharoitini yaxshilash uchun o'zlariga obyektiv baho berishadi. Aslida bularning barchasini aniqlash uchun bir qancha vaqt, mablag' va mutaxassislar kerak bo'ladi. Chuni aholi turmush darajasini baholash bu shunchaki bir martalarik statik ko'rsatkichlar tizimi emas, aksincha bu vaqt va makon ta'sirida bo'lib, ularning o'zgarishi bilan bevaositda bog'liqdir.

Bunday ilmiy tadqiqotlar, izlanishlar va islohotat mamlakatimizda ham amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda ham aholi turmush darajasini baholash va uni aniq ko'rsatkichlar tizimini yaratish uchun qator ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz tomonidan aholi turmush darajasini yaxshilash uchun bugungi kun talablarini hisobga olgan holda islohotlarning olib borilishi, jamiyatning iqtisodiy, manaviy va madaniy jihatdan yangi bosqichga olib chiqish uchun qilinayotgan ishlar, aynan aholi turmush darajasini yaxshilash uchun xizmat qilmoqda. Jumladan Aholi o'rtasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda aholi o'rtasida o'zini - o'zini band qilish uchun qilinaotgan ishlar o'z natijasini bermoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirmoqchi bo'lganlar uchun imtiyozli kreditlarni ajratilishi, tadbirkorlikni endigina boshlaganlar uchun soliq imtiyozlari, horijdan tadbirkorlik uchun kerak bo'ladigan uskunalarni olish kirishda bojxona to'lovidan ozod qilinishi va boshqa imkoniyatlar bugungi kunda ko'plab insonlar foydalanmoqda. Aholi turmush darajasini yaxshilash uchun aholi bandligini oshirish, mehnatga layoqatli qatlamni ish bilan ta'minlash masalalari bugungi kunda jamiyat va davlat o'rtasidagi masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Jumladan, "Fuqarolarga o'zining ishlab chiqarishga va ijodiy mehnatga doir qobiliyatlaridan foydalanish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan, shu jumladan haq to'lanadigan ishni bajarish bilan bog'liq bo'lmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish bo'yicha mutlaq huquq tegishlidir"². Qonunning ushbu bandidan ko'rinib turibdiki aholi o'zini band qiladigan faoliyatlar davlat tomonidan himoyalangan.

Yuqorida biz tilgan olgan islohotlar o'z natijasini bermasdan qolmadi. Statistika murojaat qiladigan bo'lsak buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Davlat statistikasi qo'mitasi boshlig'ining 2020 - yil oxirida bergan o'z maqolasida aytilgan quyidagi ma'lumotlarni keltirsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2020-yil uchun dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, aholi daromadlarining yalpi daromadlari ulushi 71,5 foizni tashkil etadi, shundan 69,3 foizi mehnat faoliyatidan, 2,1 foizi esa shaxsiy iste'moldan

² O'zbekiston Respublikasining 20.10.2020 – yildagi “ Aholi bandligi to'g'risida”gi O'‘RQ 642 – sonli qonuni. www.lex.uz

tushadigan daromadlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Ma‘lumki, keyingi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash borasida aniq maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmog‘da. Natijada tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar ulushi yildan-yilga ortib, 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida 58 foizni tashkil etdi. Bu 2010 yilda 50% atrofida bo‘lganini hisobga olsak, 8% ga o‘shishni anglatadi.

Aholi jon boshiga daromad umumiy yalpi daromadni doimiy yashovchilarning o‘rtacha yillik soniga bo‘lish yo‘li bilan hisoblanadi. Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida mamlakatimizda doimiy yashovchilarning o‘rtacha yillik soni 34232,1 ming kishini tashkil etdi. Shu davrda aholining jami daromadlari 401,5 trillion so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan real o‘shish 2,6 foizni tashkil etdi. Aholi jon boshiga o‘rtacha yalpi daromad 11,7 million so‘mni tashkil etib, real o‘shish 0,7 foizni tashkil etdi.

Kundan kunga ahli sonining oshishi hamda jamiyatning turli sohalarida bo‘layotgan o‘zgarishlar aholi turmush darajasini statistik tahlil qilish uchun bir oz murakkabliklar tug‘dirishi mumkin. Bunday hollarda yuqori aniqlikda ma‘lumotlarni olish va ularni qayta ishlashda statistika qo‘mitasining o‘rni kattadir. Chunki bizga ma‘lumki bugungi kunda axborotlar oqimining kengligi, ularni tinimsiz almashinib turishi va ma‘lum vaqtda olingan ma‘lumotni vaqt o‘tishi bilan o‘z qiymatini yo‘qotib borishi statistika hodimlarini ham qiynab qo‘yishi tabiiy. Shuni alohida takidlab o‘tish kerakki, statistik jarayonlarni tashkil etish va ularni tartib solish uchun qo‘mitaning tegishli normativ – huquqiy hujjatlarida ba‘zi masalalar keltirib o‘tilgan. “Davlat statistikasi to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasiga muvofiq, “Davlat statistika qo‘mitasi ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlar hamda ularning natijalari to‘g‘risidagi statistik ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlash, to‘plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish bilan shug‘ullanadi. Shuningdek, qo‘mita yuridik va jismoniy shaxslardan aholi turmush darajasi to‘g‘risidagi statistik ma‘lumotlarni to‘plashda statistik hisobot shakllari yoki turli kuzatishlar orqali belgilangan tartibda ma‘lumotlarni olish huquqiga ega ekanligi belgilab qo‘yilgan”.³

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Экономическая теория: Учебник / Под общ. ред. акад.В.И. Видяпина, А.И. Добрынина, Г.П. Журавлевой, Л.С. Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2003. – 714 с – (Серия «Высшее образование»).
2. www.president.uz
3. www.lex.uz
4. www.stat.uz
5. www.researchgate.net
6. www.elibrary.ru

³ O‘zbekiston Respublikasining 2002 – yil 12 – dekabrda “Davlat statistikasi to‘g‘risida”gi 441 - sonli qonuni. www.lex.uz